



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 432-437 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

JAHONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Masharipova Asal Muhammadvafo qizi

Urganch davlat universiteti jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

amasharipova1@gmail.com



Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon miqyosida "yashil" iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyot bugungi kunda global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan kompleks jarayon sifatida ko'riladi. Ko'plab davlatlar ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash maqsadida "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tishga harakat qilmoqda. Shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, uglerod emissiyasini kamaytirish va bioxilma-xillikni saqlash kabi yo'nalishlar dolzarbligini saqlab qolmoqda. Maqolada jahonning turli mamlakatlaridagi "yashil" iqtisodiyot bo'yicha yondashuvlari, amalga oshirilayotgan strategiyalar va mavjud muammolar muhokama qilinadi. Xususan, O'zbekistonning ham yashil iqtisodiyotga o'tish borasidagi harakatlari tahlil qilinib, kelajakdagi istiqbollarga baho beriladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, resurslarni boshqarish, innovatsiyalar, karbon chiqindilari, energiyani tejash, barqaror energetika, yashil texnologiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil moliya, ekologik investitsiyalar, ijtimoiy rivojlanish, global iqlim o'zgarishi, qayta tiklanadigan energiya, davlat siyosati, tabiiy resurslar.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности развития "зеленой" экономики в глобальном масштабе. Сегодня зеленая экономика является одним из ключевых направлений устойчивого развития во всем мире. Развитие "зеленой" экономики рассматривается как сложный процесс, включающий экономические, экологические и социальные изменения. Многие страны стремятся перейти к модели "зеленой" экономики для решения экологических проблем и обеспечения экономического прогресса. В частности, актуальными остаются такие направления, как использование возобновляемых источников энергии, переработка отходов, сокращение выбросов углерода и сохранение биоразнообразия. В статье обсуждаются подходы различных стран к "зеленой" экономике, реализуемые стратегии и существующие проблемы. В частности, анализируются усилия Узбекистана по переходу к "зеленой" экономике и оцениваются перспективы на будущее.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, экологическая устойчивость, управление ресурсами, инновации, выбросы углерода, энергосбережение, устойчивая энергетика, зелёные технологии, охрана окружающей среды, зелёные финансы, экологические инвестиции, социальное развитие, глобальное изменение климата, возобновляемая энергия, государственная политика, природные ресурсы.

Annotation. This article analyzes the characteristics of the development of the "green" economy on a global scale. Today, the green economy is one of the key directions of sustainable development worldwide. The development of a "green" economy is considered a complex process that includes economic, environmental, and social changes. Many countries are striving to transition to a "green" economic model to address environmental issues and ensure economic progress. In particular, the use of renewable energy sources, waste recycling, reduction of carbon emissions, and the preservation of biodiversity remain relevant areas. The article discusses different countries' approaches to the "green" economy, the strategies being implemented, and existing challenges. Specifically, Uzbekistan's efforts toward transitioning to a green economy are analyzed, and future prospects are evaluated

Keywords: green economy, sustainable development, ecological sustainability, resource management, innovations, carbon emissions, energy saving, sustainable energy, green technologies, environmental protection, green finance, ecological investments, social development, global climate change, renewable energy, government policy, natural resources.

Kirish

Bugungi kunda jahonda asta-sekinlik bilan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta'minlashga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar, g'oyalari ishlab chiqilmoqda. Ushbu g'oyalarning amaliyotga tatbiqi "yashil" iqtisodiyotni rivojlanishi bilan hal qilinmoqda.

XXI asrda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi iqtisodiy tizimda yangi paradigma sifatida tobora keng tarqalmoqda. "Yashil" iqtisodiyotning rivojlanishi jahon miqyosida o'sib borayotgan ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi fonida alohida ahamiyat kasb etadi. "Yashil" iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror holatga keltirishdir. Xususan, BP ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 2019-yilda atmosferaga chiqarilayotgan CO₂, miqdori 2018-yilga nisbatan 0.5%ga ko'payib 34,1 mlrd. tonnaga yetdi. Statistik raqamlar 1990-2019-yillarda issiqxona gazlarini emissiya qilish ko'rsatkichi rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga keskin ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. [2] Shu sababli, ko'pgina mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni qayta ishlash, yangi ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda ekologik tashviqot, ekologik xizmatlar ko‘rsatish, ekologik toza energiya manbalarini o‘zlashtirish va soha uchun zarur kadrlarni tayyorlash kabi o‘zaro bog‘liq vazifalarni hal etish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va hisobotlar mavjud.

Y.B.Mustafoqulov “Yashil iqtisodiyot va uning rivojlanish bosqichlari” barqaror rivojlanishning asosini inson tashkil etishini ta’kidlaydi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson tanlovini kengaytirish asosiy g‘oya ekanligiga tayangan holda insonning o‘z hayot faoliyatini shakllantirish, qarorlar qabul qilish, ularni amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilish jarayonida to‘laqonli qatnashishi lozimligini nazarda tutadi.[9] Bu “yashil” iqtisodiyot asosida amalga oshirilishi muhim omil hisoblanadi.

D.Sh.Yavmutov global ekologik muammolar kuchaygan davrda yashil iqtisodiyotni qo‘llash orqali barqaror o‘sishga erishish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilgan va ularning tajribasidan O‘zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini[10] tadqiq qilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini ekologiya talabalari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

M.I.Yuldashev “yashil” iqtisodiyot atamasini izohlab, uning mohiyatini ochib bergan. “Yashil” iqtisodiyotga erishish uchun tabiat va inson faoliyati birgalikda va uyg‘un bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. “Yashil” iqtisodiyotning yo‘nalishlari o‘rganilar ekan, quyidagi uch asosiy yo‘nalish tanlab olinadi.

1. Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy forumlar, maslaxatlashuvlar orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni targ‘ib qilish hamda tizimli ravishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘p tomonlama mintaqaviy va submintaqaviy hamkorlik iste‘mol va ishlab chiqarishda barqaror o‘zgarishlarni tezlashtirish va mustahkamlash uchun qo‘llab-quvvatlanadi.

2. “Yashil” moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishda asosiy e‘tiborni Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlariga qaratilayotganligini namoyish qilish. Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar keltir-masdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega

3. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va asosiy kiritish nuqtayi nazaridan mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlash. Masalan, yashil iqtisodiyot dasturlariga jadal “Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Mo‘g‘ulistonni Yashil rivojlanish milliy siyosatini amalga oshirishda, yashil iqtisodiyotni mahalliy darajadagi rivojlanish rejalariga, Barqaror rivojlanish maqsadlari ko‘rsatkichlariga integratsiyalashuvida va asosiy tarmoqlarni yashillashtirishda qo‘llab-quvvatlamog‘da. [11]

Tahlil va natijalar

Yashil iqtisodiyot jahon bo‘ylab rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu iqtisodiyot modelining asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sishni ekologik

barqarorlik va ijtimoiy farovonlik bilan uyg'unlashtirishdir. Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy ustuvor yo'nalishlari energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavflarni kamaytirishdir.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni davom etmoqda. Bunga sabab, global isish, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi kabi ekologik muammolar. Yashil iqtisodiyot esa iqtisodiy o'sishni barqaror qilish, ijtimoiy farovonlikni oshirish va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan model sifatida samarali bo'lib chiqmoqda. Masalan, 2015-yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan BMTning iqlim isishiga bag'ishlangan konferensiyada 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini +2°C da ushlab turish siyosatini qabul qilishi bilan belgilandi. Konferensiyada 147 ta mamlakat "yashil iqtisodiyot" rejalarini, 147 ta mamlakat tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish dasturlarini va 167 ta mamlakat energiya samaradorligini iqlim o'zgarishlariga munosib ravishda oshirish tavsiyalarini taqdim etishdi.¹

Ma'lumki, barcha mamlakatlar bir maqsad yo'lida harakat qilsa ham har xil yo'nalishni tanlaydi. Quyida bir qancha davlatlarning "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi sa'y-harakatlari ko'rib chiqiladi.

Yevropa ittifoqi va "yashil iqtisodiyot". Yevropa Ittifoqi "yashil" iqtisodiyotga o'tish borasida eng ilg'or hududlardan biridir. Yilda "yashil iqtisodiyot ga o'tish jarayoni uch darajali boshqaruv tuzilmasiga ega: umumiyevropa, milliy va mintaqaviy. Umumiyevropa darajasida "yashil iqtisodiyot siyosati sohasidagi farqlar yo'qotiladi,

¹ <http://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/cop21/>

"yashil texnologiyalar"ni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish amalga oshiriladi. Milliy darajada ustuvorlik fundamental tadqiqotlar va kadrlar tayyorlashga qaratiladi. Mintaqa darajasida esa ekoinnovatsiyalarni ommalashtirish siyosati amaliyotga tatbiq etiladi. Yevropa Ittifoqida bir necha dasturlar ishlab chiqildi. Jumladan, "Yevropa 2020" dasturi (2015-y.), "Yevropa yashil bitim" dasturi (2019-y.) [5]. Bu dasturlarning asosiy maqsadi past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash, resurslar iste'molini qisqartirish bilan bir vaqtda iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat.

Bundan tashqari, Yel mamlakatlari ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ko'plab yirik tashabbuslar ishlab chiqqan. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2020-yilga qadar karbon chiqarishni 20%ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni 20%ga oshirishni maqsad qilgan edi. [2]. 2030-yilga borib, ushbu maqsadlar yanada kuchaytirilishi va 2050-yilda Yevropa Ittifoqi butunlay karbon chiqindisiz hududga aylanishni rejalashtirgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari va "yashil" iqtisodiyot. AQShda "yashil" iqtisodiyotga o'tish borasida aniq dastur va ma'lumotlar mavjud emas. Shunday bo'lsa-da AQShda "yashil energetika" barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sohada texnologik yetakchilikni belgilash omili sifida qaraladi. Jumladan, hozirgi vaqtda AQSH federal hukumati elektroenergiyaning 7,5%ini shamol energiyasidan oladi. [1]

Shuningdek, D.Tramp prezidentligi davrida AQShda "Barqaror rivojlanish maqsadlari 2030" va Parij kelishuvi talablarini qabul qilmaslik tendensiyasi kuchayib bormoqda.

Xitoy va "yashil" iqtisodiyot. Xitoyning yashil iqtisodiyotga o'tishi so'nggi yillarda jahon miqyosida e'tibor qaratilayotgan muhim yo'nalishlardan biri bo'ldi. Xitoy dunyoning eng katta quyosh energiyasi ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. 2022-yilda Xitoyda quyosh energiyasining o'rtacha quvvati 350 gigavatt (GW) ni tashkil etdi, bu global ishlab chiqarishning taxminan 30% ni tashkil etadi.

Shuni aytish joizki, Xitoy 2021-yilda dunyodagi eng katta yashil obligatsiya bozoriga ega bo'ldi. 2021-yilning o'zida Xitoyda yashil obligatsiyalar hajmi 50 milliard AQSh dollariga yetdi. Xitoyda yashil obligatsiyalarni chiqarish va atrof-muhitga foyda keltiruvchi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar doimiy ravishda oshib bormoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "yashil" iqtisodiyotga o'tishda eng asosiy vositachi bu inson. Xitoy ham ana shuni nazarda tutgan holda ish olib bordi va 2021-yilga kelib, Xitoyda "yashil" iqtisodiyot sohasida ish bilan band bo'lganlar soni 10 milliondan ortiqni tashkil etdi.[7] Bu ish o'rinlari energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Koreya Respublikasi va "yashil iqtisodiyot". Koreya Respublikasi "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat "Yashil o'sish strategiyasi" doirasida barqaror rivojlanishga erishish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida iqtisodiy o'sishni ekologik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga intilmoqda.

2008-yilda Janubiy Koreya hukumati "Yashil o'sish" konsepsiyasini qabul qildi, bu esa ekologik barqarorlikka asoslangan iqtisodiy rivojlanish modelidir. Shu yildan boshlab hukumat bir qancha chora-tadbirlarni ishlab chiqdi. Xususan, Koreya Respublikasi 2015 yilda issiqxona gazlari emissiyasi darajasini 2030-yilgacha bo'lgan davrda 37%ga qisqartirish to'g'risida qaror qabul qildi.[3] Lekin bu rejalar 2020-yilga kelib kutilgan natijani bermadi. Shuning uchun, issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish to'g'risidagi 2020-yilga belgilangan maqsad "Kam uglerodli va yashil o'sish to'g'risida" gi qonun asosida 2030-yilga belgilangan maqsad bilan almashtirildi.[4]

O'zbekiston va "yashil" iqtisodiyot. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga qaratilgan harakatlari so'nggi yillarda sezilarli darajada o'smoqda. Davlat ekologik va barqaror rivojlanish siyosatini joriy etish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirmoqda. Jumladan, 2020-yilda O'zbekiston hukumati qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini 2030-yilgacha 25% ga yetkazish maqsadini qo'ygan.[8]

O'zbekiston quyosh energiyasi resurslariga boy bo'lib, 2021-yilda yashil energiya sohasiga jiddiy e'tibor qaratish boshlandi. Mamlakatda quyosh energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

2021-yilda "Nurobod" va "Jizzax" kabi yirik quyosh energetik stansiyalari ishga tushirilgan. Bu stansiyalar jami 1,2 GW quvvatga ega bo'lib, O'zbekistonning energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Xulosa

Jahonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, ekologik barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni davom ettirish uchun samarali yo'l hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida bir qator muvaffaqiyatli misollar mavjud bo'lib, ular global miqyosda bu modelning keng qo'llanishiga turtki bo'lmoqda. Biroq, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ba'zi muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun davlatlar, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi dunyo bo'yicha barqaror va ekologik toza iqtisodiy tizimning yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Steffen J., Chan G. Frankenberger R., Gabel M. What Drives States to Support Renewable Energy? The Energy Journal. 2012. Vol. 33. No. 2. P. 1-12.
2. 2018 World Green Economy Report Inspiring innovations in business, finance and policy. <http://worldgreeneconomy.org/wp-content/uploads/2018/10/report.pdf>
3. Jaehong Whang, Woohyun Hwang, Yeuntae Yoo and Gilsoo Jang. Introduction of Smart Grid Station Configuration and Application in Guri Branch Office of KEPCO. <https://www.mdpi.com/journal/sustainability>
4. OECD Environmental Performance Reviews: Korea 2017. <http://oe.cd/epr-korea>
5. Оценка окружающей среды Европы. Европейское агентство по окружающей среде, 2011. Обобщающий доклад. Копенгаген. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.eea.europa.eu>
6. M.T.Asqarova, J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev, Yashil iqtisodiyot. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. – 312b.B.230-239.
7. A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiev .Yashil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan./i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: "ZEBO PRINT", 2021. - 264 b.B.195-197
8. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. –Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б.В.228
9. Y.B.Mustafoqulov "Yashil iqtisodiyot va uning rivojlanish bosqichlari". Practical problems and solutions to the use of theoretical laws in the sciences of the 21st century TASHKENT, 6-8 MAY 2024.B.900.www.in-academy.uz
10. D.Sh.Yavmutov "Yashil iqtisodiyotga o'tishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari".Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.-2023-№11.B.41-42
11. M.I.Yuldashev "Yashil iqtisodiyot:mazmun ,mohiyati,nazariya va amaliyot" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.-2023-№12.B.813-814

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

